MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

O‘ZBEK FOLKLORIDA AFORISTIK JANRLARNING O‘ZARO MUNOSABATI VA BADIIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Saidqul Alimov,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi aforistik janrlarning o‘zaro munosabatlari, xususan, naql va maqol janrlarining strukturaviy, semantik hamda badiiy-funksional xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etiladi. Aforistik janrlarning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti va folklor janrlari tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Naql janrining ertak, masal va maqol bilan o‘zaro aloqalari, ularning umumiy hamda farqli jihatlari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida yoritiladi. Naql syujetida voqealar rivojining didaktik g‘oyaga bo‘ysundirilishi, ramziy obrazlarning badiiy-estetik vazifasi, axloqiy-falsafiy mazmunning xalq tafakkuri bilan bog‘liqligi asoslanadi. “Majnuntol bilan terak” hamda “Xasis boy va uning o‘g‘illari” naqllari misolida kamtarlik, insoniylik, ezgulik, ochko‘zlik va ma’naviy qadriyatlar talqini ochib beriladi. Shuningdek, xalq maqollarining naqllardagi g‘oyaviy mazmunni umumlashtirishdagi o‘rni hamda janrlararo funksional yaqinlikning tarixiy ildizlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida naql va maqol janrlari strukturaviy jihatdan farqlanishiga qaramay, ularning axloqiy-didaktik vazifasi, semantik mushtarakligi va tarbiyaviy ahamiyati o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, aforistik janrlar, naql, maqol, ertak, janrlararo munosabat, didaktik g‘oya, semantik xususiyat.*

Аннотация. *В статье исследуются взаимосвязи афористических жанров узбекского устного народного творчества, в частности структурные, семантические и художественно-функциональные особенности жанров назидательного рассказа (накл) и пословицы. Рассматриваются вопросы формирования и исторического развития афористических жанров, а также их место в системе фольклорных жанров. На основе сравнительно-типологического подхода анализируются взаимосвязи назидательного рассказа со сказкой, басней и пословицей, выявляются их общие и отличительные признаки. Особое внимание уделяется подчинению сюжетного развития дидактической идее, художественно-эстетической функции символических образов и связи нравственно-философского содержания с народным мировоззрением. На материале узбекских народных рассказов «Плакучая ива и тополь» и «Скупой богач и его сыновья» раскрываются представления о скромности, человечности, добродетели, жадности и духовных ценностях. Исследуется роль народных пословиц в обобщении идейного содержания назидательных рассказов, а также исторические истоки межжанровых функциональных связей. Установлено, что, несмотря на структурные различия, назидательный рассказ и пословица обладают семантической общностью и сходными нравственно-дидактическими и воспитательными функциями.*

Ключевые слова: *узбекский фольклор, афористические жанры, назидательный рассказ, пословица, сказка, межжанровые связи, дидактическая идея, семантические особенности.*

Abstract. *This article examines the interrelationships among aphoristic genres in Uzbek oral folklore, with particular emphasis on the structural, semantic, and artistic-functional characteristics of the traditional didactic narrative (naql) and the proverb. It explores the formation and historical development of aphoristic genres and their position within the broader system of folklore genres. Using a comparative-typological approach, the study analyzes the relationships between the *naql*, folktale, fable, and proverb, identifying their shared and distinctive characteristics. Particular attention is given to the subordination of narrative development to a didactic idea, the artistic and aesthetic functions of symbolic characters, and the relationship between moral-philosophical content and traditional folk thought. Drawing on the Uzbek narratives "The Weeping Willow and the Poplar" and "The Miserly Rich Man and His Sons," the article explores representations of humility, humanity, virtue, greed, and moral values. It also examines the role of proverbs in generalizing the ideological content of didactic narratives and considers the historical roots of functional relationships among folklore genres. The study demonstrates that, despite their structural differences, didactic narratives and proverbs share semantic features and closely related moral, didactic, and educational functions.*

Keywords: *Uzbek folklore, aphoristic genres, didactic narrative, proverb, folktale, intergenre relations, didactic idea, semantic features.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlar tizimida aforistik janrlar alohida o‘rin egallaydi. Ular xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, falsafiy mushohadalari va ijtimoiy tafakkurini ixcham, obrazli hamda umumlashtirilgan shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi. Aforistik janrlarning shakllanishi va taraqqiyoti xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning badiiy-funksional xususiyatlarini o‘rganish folklorshunoslikning muhim ilmiy masalalaridan biridir.

Xususan, naql va maqol janrlari o‘rtasidagi strukturaviy, semantik hamda funksional munosabatlar xalq tafakkurining tarixiy rivojlanishini, badiiy umumlashtirish usullarini va didaktik an’analarning shakllanish jarayonini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Naql janrining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda voqealar rivoji mustaqil badiiy maqsad sifatida emas, balki muayyan axloqiy-falsafiy xulosani yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan naql ertak, masal va boshqa kichik epik janrlar bilan muayyan o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, asosiy funksiyasi va mazmuniy yo‘nalishiga ko‘ra ulardan farqlanadi.

Maqolada qiyosiy-tipologik, strukturaviy-semantik, tarixiy-qiyosiy va badiiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik yondashuv orqali naql, maqol, ertak va masal janrlarining o‘xshash hamda farqli xususiyatlari aniqlanadi. Strukturaviy-semantik tahlil yordamida naql syujetining tarkibiy qismlari, ramziy obrazlar tizimi va didaktik xulosa o‘rtasidagi munosabatlar ko‘rib chiqiladi.

Tarixiy-qiyosiy yondashuv folklor janrlarining shakllanish jarayonlari hamda yozma adabiy yodgorliklar bilan aloqalarini izohlash imkonini beradi. Badiiy tahlil metodi asosida esa xalq naqllaridagi obrazlar, konfliktlar, badiiy detallar va axloqiy-estetik g‘oyalar talqin etiladi.

Naql janri syujeti boshqa epik janrlar syujetidan muayyan jihatlari bilan farqlanadi. Ertak va boshqa epik janrlarda voqealarning mantiqiy izchilligi, obrazlar harakati hamda

konfliktning rivojlanishi asarning badiiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Naqlda esa syujet komponentlari, avvalo, yagona didaktik g‘oyani ifodalashga xizmat qiladi.

Shu sababli naqlning g‘oyaviy markazini faqat voqealar rivojidan emas, balki ushbu voqealar orqali yuzaga keladigan mantiqiy xulosa va axloqiy-didaktik mazmundan izlash maqsadga muvofiqdir.

Naql janrini ertak bilan strukturaviy-tipologik jihatdan qiyoslaganda bir qator umumiy va farqli xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, har ikkala janrda ham voqea, obraz va konflikt mavjud bo‘lishi mumkin. Biroq ertakda badiiy-estetik funksiya nisbatan kengroq namoyon bo‘lsa, naqlda axloqiy-falsafiy mazmun va didaktik xulosa ustuvorlik qiladi. Naql obrazlari ko‘pincha umumlashtirilgan yoki ramziy xarakterga ega bo‘ladi. Ularning xatti-harakatlari individual ruhiy kechinmalarni batafsil ochib berishdan ko‘ra, muayyan insoniy fazilat yoki illatni ifodalashga qaratiladi. Masalan, naql qahramonlari kamtarlik, manmanlik, saxovat, xasislik, ezgulik yoki yovuzlik singari axloqiy tushunchalarning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday obrazlar vositasida xalqning hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlari umumlashtiriladi. Demak, naqlning asosiy vazifasi badiiy voqelikni tasvirlash bilan cheklanmay, inson tafakkuri va axloqiy kamoloti bilan bog‘liq xalqona donishmandlikni targ‘ib etishdan iborat.

Naqlning folklor janrlari tizimidagi o‘rnini aniqlashda uning maqol janri bilan o‘zaro munosabatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Maqol paremiologik janr sifatida shakliy ixchamligi, mazmuniy umumlashganligi va nisbatan barqaror matni bilan ajralib turadi. Unda xalqning muayyan voqea-hodisa, insoniy munosabat yoki ijtimoiy holat haqidagi kuzatuvlari qisqa va obrazli hukm shaklida ifodalanadi.

Naqllarning ayrim namunalari ham mazmuniy va kompozitsion jihatdan barqaror xususiyatga ega. Xususan, og‘zaki ijro jarayonida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan naqllarda asosiy syujet, obrazlar tizimi va didaktik xulosa ko‘pincha saqlanib qoladi. Shu bilan birga, og‘zaki an’ana tabiati tufayli ular variantlashishi ham mumkin.

Naql va maqol o‘rtasidagi funksional yaqinlik ushbu janrlarning tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zaro aloqador bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ularning umumiy ildizlari, shakllanish bosqichlari va janriy tabaqalanishi masalasi alohida tarixiy-tipologik tadqiqotlarni talab etadi.

Insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va tafakkur faoliyati rivojlanishi natijasida folklor janrlarining badiiy ifoda imkoniyatlari ham takomillashib borgan. Muayyan axloqiy qarashlar ayrim hollarda qisqa maqol shaklida, boshqa vaziyatlarda esa voqeaband naql orqali ifodalangan.

Mazkur holatni akademik D.S.Lixachyovning janrlar tizimi haqidagi nazariy qarashlari bilan izohlash mumkin. Olimning fikricha, janrlar turli tarixiy va badiiy omillar ta’sirida yuzaga keladi, o‘zaro aloqada bo‘ladi, bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi va ayrim holatlarda o‘zaro raqobatlashib, muayyan tizimni tashkil etadi[1, 48-b.]. Darhaqiqat, naql va maqollarning shakllanishi, xalq og‘zaki ijodida ommalashuvi hamda ularning o‘zaro semantik munosabatlari folklor janrlarining yaxlit tizim sifatida rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Naql va maqolning funksional yaqinligini insoniy fazilatlarni ulug‘lovchi folklor namunalari asosida ham kuzatish mumkin.

Shunday naqllardan biri “Majnuntol bilan terak” [2, 175-b.] dir.

Mazkur naql syujetida voqealar rivoji asosiy maqsad emas, balki muayyan axloqiy-falsafiy xulosani ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Unda ramziy obrazlarning xatti-harakatlari yagona didaktik g‘oyaga bo‘ysundirilgan.

Naql an’anaviy keng ekspozitsiyasiz, bevosita voqealar markazidan boshlanadi. Majnuntol oldiga odamlarning tez-tez kelib turishidan g‘ashi kelgan Mirzaterak unga shunday murojaat qiladi:

“Menim oldimga savlatimdan hayiqib, uncha-buncha odam kelavermaydi. Senga hayronman. Yoningdan odam arimaydi, yo seni nazar-pisand qilmaydimi?”

Majnuntolning javobi esa syujet yechimini va naqlning asosiy g‘oyaviy mazmunini yuzaga chiqaradi. U terakka kibr-havo bilan osmon sari intilishini, odamlar uning oldiga ko‘pincha kesib qulatish uchun kelishini aytadi. O‘zi esa doimo bosh egib turishini va odamlarning yoniga ko‘p kelishi aynan shu kamtarligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Ushbu dialogda Mirzaterak manmanlik va kibrning, majnuntol esa kamtarlik va insoniylikning ramziy ifodasi sifatida gavdalanadi.

Naqlning asosiy mazmunini xalq orasida keng tarqalgan “Kamtarga kamol, manmanga zavol” maqoli orqali umumlashtirish mumkin.

Mazkur maqol naql syujetida badiiy voqealar vositasida ifodalangan axloqiy xulosaning ixcham shaklidir. Ya’ni maqolda umumlashtirilgan hukm tarzida berilgan fikr naqlda obrazlar munosabati va dialog orqali badiiy dalillanadi.

Ayni shu xususiyat naql va maqol janrlari o‘rtasidagi semantik-funksional yaqinlikni namoyon etadi.

Naqlda voqealar rivoji orqali ifodalangan axloqiy g‘oya maqolda qisqa va lo‘nda hukmga aylanadi. Maqolning ma’nosini kengroq izohlash zarurati tug‘ilganda esa unga mazmunan mos keladigan naql syujetidan foydalanish mumkin.

Ayrim naqllarda didaktik mazmunning yanada kuchli, ta’sirchan va ommabop bo‘lishini ta’minlash maqsadida xalq maqollari bilan mazmuniy uyg‘unlik yuzaga keladi. Bunday holat “qissadan hissa” chiqarish tamoyili bilan bog‘liq bo‘lib, naqlning janriy tabiatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Shuningdek, xalq maqollari ko‘plab vaziyatlarda turlicha mazmuniy talqin qilinishi mumkin. Naql esa odatda muayyan syujet va obrazlar tizimi orqali aniq bir axloqiy g‘oyani yetkazishga yo‘naltiriladi. Biroq uning mazmuni ham ijro va qabul qilish sharoitiga qarab turlicha sharhlanishi mumkin.

Shu bois naqlni muayyan mavzu va umumiy didaktik g‘oyani tinglovchiga obrazli hamda ishonarli shaklda yetkazishga xizmat qiluvchi kichik epik janr sifatida baholash mumkin.

Naql janrining boshqa folklor janrlari bilan aloqalarini o‘rganishda uning ertak va masalga xos ayrim badiiy xususiyatlarga egaligini ham hisobga olish zarur.

Xalq og‘zaki ijodida ramziy obrazlar, ayniqsa, hayvonlar, qushlar, o‘simliklar va boshqa tabiat unsurlarining insoniy xususiyatlar bilan tasvirlanishi turli janrlarda uchraydi.

Shu sababli ayrim tadqiqotlarda ramziy obrazlar ishtirok etgan naqllar hayvonlar haqidagi ertaklarga yaqinlashtiriladi. Boshqa yondashuvlarda esa ularning yakuniy axloqiy xulosasi maqol va masal janrlariga xos didaktik mazmun bilan qiyoslanadi.

Rus folklorshunosligida ramziy obrazlar harakati asosida shakllanadigan ibratli xulosaga e'tibor qaratilib, bunday ayrim namunalarni "basnya", ya'ni masal janriga yaqinlashtirish holatlari ham uchraydi.

O'zbek folklorida Yevropa adabiy an'analaridagi kabi mustaqil masal janrining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari o'ziga xos bo'lsa-da, ayrim xalq naqllari masalga xos strukturaviy belgilarni namoyon etadi. Xususan, personifikatsiya, ramziy obrazlar, qisqa syujet, axloqiy konflikt va yakuniy didaktik xulosa naql hamda masal o'rtasidagi tipologik yaqinlikni belgilaydi.

Biroq ushbu o'xshashliklar naql va masalni to'liq bir xil janr sifatida baholash uchun yetarli emas. Ularning shakllanish tarixi, ijro muhiti, badiiy uslubi va funksional yo'nalishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Naqlning mazmuniy mohiyati xalq maqollaridan biri yoki bir nechtasining g'oyaviy mazmuniga mos kelishi ushbu janrlar o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, jumladan, toshbitiklar, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida uchraydigan hikmatli so'zlar, maqollar va pand-nasihatga oid ifodalar turkiy xalqlarda didaktik tafakkur an'analari qadimdan mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Mazkur manbalar xalq donishmandligi va axloqiy umumlashtirishning tarixiy rivojlanishini o'rganish uchun muhim material hisoblanadi. Shu bilan birga, ulardagi har bir didaktik ifodani hozirgi folklor janrlari bilan bevosita aynanlashtirishdan ko'ra, ularning tipologik va funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir[3, 58-b.; 4, 23-b.].

Naql va maqol janrlari o'rtasidagi semantik munosabatlarni aniqlashda "Xasis boy va uning o'g'illari"[5] naqli ham muhim material bo'lib xizmat qiladi. Ushbu naqlning asosiy mavzusi ochko'zlik, xasislik va boylikka haddan tashqari ruju qo'yishning salbiy oqibatlarini ochib berishdan iborat. Naql syujetidagi voqealar xalqning quyidagi maqol va hikmatli ifodalari bilan mazmunan uyg'unlashadi:

- "Qilmish-qidirmish".
- "Birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan".
- "Gunohiga yarasha jazosi".
- "Mening nafsim balodur".
- "Yaxshini ko'rib shukr qil, yomonni ko'rib fikr qil".

Mazkur ifodalarning har biri naql syujetining muayyan semantik qirrasini ochib berishga xizmat qiladi.

Naqlning asosiy g'oyasi boylik va mol-dunyo inson hayotining eng oliy qadriyati emasligi, aksincha, odamiylik, ahillik, birodarlik va o'zaro mehr-oqibat muhim ekanligini ko'rsatishga qaratilgan. Xalq o'zining ko'p asrlik pedagogik qarashlarini yosh avlodga yetkazishda ana shunday ibratli voqealardan samarali foydalangan.

Naqlda xasis boyning mol-dunyo orttirish maqsadida har qanday razillikdan qaytmaydigan o'g'illari yo'lga chiqib, tasodifan bir oltin g'isht topib olishadi.

Mazkur badiiy detal syujetning tuguni vazifasini bajaradi. Aynan oltin g‘ishtning topilishi aka-ukalarning ichki dunyosidagi ochko‘zlik va xudbinlikni yuzaga chiqaruvchi konfliktga sabab bo‘ladi.

Voqealar rivojida oltinni egallash istagida insoniylik fazilatlarini yo‘qotgan aka-ukalarning asl qiyofasi ochib beriladi.

Ikki katta aka kenja ukasini oziq-ovqat xarid qilish uchun yuboradi. Uning yo‘qligidan foydalanib, topilgan oltinni uchga bo‘lish o‘rniga o‘zaro teng taqsimlab olishni rejalashtiradilar. Shu maqsadda kenja ukalarini qaytib kelgach o‘ldirishga kelishib oladilar.

Ayni vaqtda kenja uka ham oltinning barchasiga yolg‘iz o‘zi egalik qilishni ko‘zlaydi. Shu yovuz niyatda u sotib olgan oziq-ovqatiga zahar qo‘shadi.

Kenja uka qaytib kelganida akalari uni o‘ldiradilar. So‘ng uning olib kelgan ovqatini iste’mol qilib, o‘zlari ham zaharlanib halok bo‘ladilar.

Shu tariqa syujetning fojiaviy yechimi orqali ochko‘zlik va xasislikning muqarrar halokatga olib kelishi haqidagi didaktik g‘oya ifodalanadi.

Mazkur naqlning badiiy kuchi shundaki, unda axloqiy hukm to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon etilmaydi, balki qahramonlar xatti-harakati va ular duch kelgan fojiaviy oqibat orqali asoslanadi.

Oltin g‘isht obrazi oddiy moddiy boylikning ifodasi bo‘lish bilan birga, insonni ma’naviy tanazzulga olib boruvchi nafs va ochko‘zlikning ramziy belgisi sifatida ham talqin qilinadi.

Aka-ukalarning har biri o‘z manfaatini boshqalarnikidan ustun qo‘yishi natijasida ular o‘rtasidagi qarindoshlik, ishonch va mehr-oqibat rishtalari uziladi.

Naql yakunida boylikka egalik qilish istagi barchaning halokatiga sabab bo‘ladi. Natijada xalqning “Birovga choh qazisang, o‘zing yiqilasan” degan axloqiy xulosasi badiiy voqelik orqali tasdiqlanadi.

“Xasis boy va uning o‘g‘illari” [6, 291-b.] naqli mazmunan ko‘pqatlamli bo‘lib, uni tinglovchining yoshi, hayotiy tajribasi va dunyoqarashiga qarab turlicha talqin qilish mumkin.

Birinchidan, naql shaxsiy manfaatni haddan tashqari ustun qo‘yishning salbiy oqibatlarini ochib beradi.

Ikkinchidan, unda o‘zaro ishonch, qarindoshlik, ahillik va insoniy munosabatlarning moddiy manfaatdan ustun turishi zarurligi ta’kidlanadi.

Uchinchidan, naqlning mazmuni ijtimoiy jihatdan ham talqin qilinishi mumkin. Chunonchi, umumiy maqsad yo‘lida birlasha olmaydigan kishilar o‘rtasidagi nizolar, xudbinlik va manfaatlar to‘qnashuvi jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi mazkur syujet orqali anglashiladi.

To‘rtinchidan, naql yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Undagi obrazlar va voqealar bolalarda mol-dunyoga haddan tashqari hirs qo‘yishning oqibatlarini anglash, o‘zaro mehr-oqibatli va ahil bo‘lib yashash kabi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, naqlning mazmunida yomonlik yo‘li bilan qo‘lga kiritilgan boylik insonni baxt-saodatga olib bormasligi, moddiy manfaatni mutlaqlashtirish esa ma’naviy tanazzulga sabab bo‘lishi haqidagi xalqona falsafiy qarashlar mujassamlashgan.

Shu jihatdan “Xasis boy va uning o‘g‘illari” naqli xalq pedagogikasi, axloqiy tarbiya va ma’naviy qadriyatlar tizimini o‘rganishda muhim manba sifatida baholanishi mumkin.

Naqlning umumiy mazmunini turli xalq maqollari bilan izohlash, o‘z navbatida, maqollarning ma’nosini sharhlashda ushbu naql syujetidan foydalanish imkoniyati mavjud. Bu holat naql va maqol janrlari o‘rtasidagi ikki tomonlama semantik-funksional munosabatlarning yorqin ko‘rinishidir.

Naql va maqol janrlari strukturaviy xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlansa-da, ularning axloqiy-didaktik mazmuni hamda semantik umumlashtirish funksiyasi o‘zaro yaqinlikni namoyon etadi.

Maqolda xalqning hayotiy tajribasi ixcham hukm shaklida ifodalansa, naqlda ayni mazmun muayyan syujet, obraz va konflikt vositasida badiiylashtiriladi. Boshqacha aytganda, maqol umumlashtirilgan axloqiy xulosani bevosita ifodalasa, naql ushbu xulosani voqealar rivoji orqali asoslaydi. Folklor janrlarining bunday munosabatlarini faqat naql va maqol doirasida cheklab bo‘lmaydi. Maqol bilan ertak, maqol bilan doston, maqol bilan qo‘shiq, doston bilan ertak, ertak bilan topishmoq o‘rtasida ham mazmuniy va funksional aloqalar mavjud. Xususan, xalq dostonlarida maqollarning qahramonlar nutqi tarkibida qo‘llanishi, ertaklarda hikmatli xulosalarning ifodalanishi, qo‘shiqlarda esa xalqona falsafiy umumlashtirishlarning mavjudligi folklor janrlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ko‘rsatadi.

Bunday hodisalar folklor asarlarining shakllanishi, ijro etilishi va avloddan avlodga uzatilishi jarayonida muhim o‘rin tutadi. Eng kichik hajmli folklor namunalaridan tortib yirik epik asarlargacha bo‘lgan badiiy tuzilmalarda motiv, syujet, obraz, ramz va uslubiy birliklarning takrorlanishi yoki o‘zaro mos kelishi xalq og‘zaki ijodining yaxlit badiiy tizim ekanligini tasdiqlaydi. Demak, folklor janrlarini bir-biridan mutlaqo ajralgan, mustaqil hodisalar sifatida emas, balki tarixan shakllangan va o‘zaro dialektik aloqada rivojlanib kelayotgan badiiy tizimning tarkibiy qismlari sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Umuman, o‘zbek folkloridagi aforistik janrlar xalqning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri, axloqiy-falsafiy qarashlari va tarbiyaviy tajribasini ifodalovchi muhim badiiy hodisadir. Ularning o‘zaro munosabatlarini ilmiy o‘rganish folklor janrlari taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini aniqlash, xalq og‘zaki ijodining badiiy yaxlitligini asoslash va milliy ma’naviy merosning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Лихачев Д.* С. Система литературных жанров Древней Руси // V Международный съезд славистов. Доклады советской делегации. – Москва, 1963. – С. 48.

2. Laylak keldi, yoz bo‘ldi. – Toshkent: Mehnat, 1990. – 175-b.

3. Rahmonov N. Ko‘hna bitiktoshlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991. – 58-b.

4. Тухлиев Б. «Кутадгу билиг» Юсуфа Хас Хаджиба и тюркоязычный фольклор: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – С. 23.

5. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 1981.

6. Oltin olma. – Toshkent, 1966. – 291-b. 5. O‘zbek xalq naqllari. “Majnuntol bilan terak”, “Xasis boy va uning o‘g‘illari” namunalari o‘rin olgan folklor to‘plamlari.